



**“TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH,
XORIJDA MEHNAT FAOLIYATINI YURITAYOTGAN FUQAROLARGA
HAR TOMONLAMA KO'MAK KO'RSATISH”**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15448133>

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Xolmurodova Sevinch Jumanazarovna

Ilmiy Rahbar: Yuridik fakulteti o'qituvchisi Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi

kafedrası dotsenti **Mallayev Normamat Ramazonovich**

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida tashqi mehnat migratsiyasi tizimining holati, uning ahamiyati, mavjud muammolar va yechimlar yoritilgan. Xorijda mehnat faoliyatini olib borayotgan fuqarolarning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy holati tahlil qilinib, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, tizimni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan. Maqolada raqamli xizmatlarning roli, xalqaro hamkorlik va “Ishga marhamat” monomarkazlari faoliyati kabi dolzarb yo'nalishlar alohida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar

tashqi mehnat migratsiyasi, huquqiy muammolar, islohotlar, raqamli xizmatlar, xalqaro hamkorlik, monomarkazlar.

Tashqi mehnat migratsiyasi — bu shaxsning mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'z davlatidan boshqa davlatga vaqtincha borishi va u yerda rasmiy yoki norasmiy tartibda ishlashidir. Boshqacha aytganda, bu — fuqarolarning chet elda ishlashi bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir.

O'zbekiston uchun tashqi mehnat migratsiyasi juda muhim strategik ahamiyatga ega. Avvalo, bu ko'plab fuqarolarning ish bilan ta'minlanishi, oilaviy daromad manbai shakllanishi, kambag'allikni kamaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda xorijda mehnat qilayotgan o'zbekistonliklar tomonidan yuborilayotgan valyuta tushumlari mamlakat iqtisodiyotining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonga 2024-yili kirib kelgan pul o'tkazmalari miqdori 14,8 mlrd dollarni tashkil qildi. Bu haqda Markaziy bankning “Jismoniy shaxslarning valyuta operatsiyalari bo'yicha



qisqacha sharhi”da **ma’lum** qilindi. Qayd etilishicha, ushbu ko’rsatkich 2023-yilga nisbatan **30 foizga yoki 3,4 mlrd dollarga** ko’p.¹

Bundan tashqari, mehnat migratsiyasi orqali fuqarolar xorijiy davlatlarda zamonaviy bilim, ko’nikma va tajriba orttiradilar. Bu esa keyinchalik ularning o’z yurtida ham ish faoliyatini davom ettirishiga va mamlakatda malakali kadrlar safining kengayishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasi diplomatik, madaniy va ijtimoiy aloqalarning rivojlanishiga ham zamin yaratadi. Migratsiya sohasini tartibga solish orqali davlat xalqaro miqyosda o’z pozitsiyasini mustahkamlab boradi. O’zbekiston fuqarolari asosan Rossiya Federatsiyasi, Qozog’iston, Janubiy Koreya, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari va Polsha kabi mamlakatlarga ishlash uchun chiqishmoqda. Rossiya va Qozog’istonda qurilish, xizmat ko’rsatish va ishlab chiqarish sohalari yetakchilik qiladi. Janubiy Koreyada esa rasmiy kvotalar asosida texnik mutaxassisliklar bo’yicha ishlash imkoniyatlari mavjud.

Antonio Guterras, Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) Bosh kotibi 2022-yil 19-may -Xalqaro Migratsiyani ko’rib chiqish forumida “ Migratsiya hayotning bir qismi –aslida, bu inson hayoti kabi qadimiydir. Ammo ko’pincha, bu no’to’g’ri boshqarilgan, muofiqlashtirilmagan, no’to’g’ri tushunilgan va yomonotliq qilingan. Bugungi kunda dunyo bo’ylab migrantlarning 80 foizidan ortig’i mamalakatlar o’rtasida xavfsiz va tartibli tarzda harakat qilmoqda. Ammo tartibga solinmagan migratsiya – kontrabandachilik hukmronligi – dahshatli xarajatlarni talab qilmoqda” - deb takidlaydi.

Migratsiya ijobiy global hodisa. U iqtisodiy o’sishni kuchaytiradi, tengsizlikni kamaytiradi, turli jamiyatlarni bog’laydi va bizga aholi o’sishi va kamayishining demografik to’lqinlarini yengishga yordam beradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-dekabrdagi "Xorijga mehnat migratsiyasi va migrantlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida"gi farmoni qabul qilinadi . Ushbu farmon migrantlarning huquqlarini himoya qilish va ularning mehnat shartnomalarini rasmiylashtirishni soddalashtirishga qaratilgan.²

2019-yilda O’zbekistonda Xorijdagi fuqarolar uchun huquqiy maslahat markazlari ochildi. Bu markazlar Migrantlar huquqlarini himoya qilish, mehnat shartnomalari, soliqlar, va boshqa huquqiy muammolar bo’yicha bepul maslahatlar taqdim etadi. Markazlar endi Toshkent, Buxoro, Samarqand, Namangan, va boshqa shaharlarda faoliyat yuritmoqda.

2020-yilda Mehnat migratsiyasi portali ([www.migran](http://www.migran.uz)) uz ochildi. Ushbu portal orqali O’zbekiston fuqarolari xorijga chiqish uchun kerakli hujjatlarni olish,

¹ <https://nbu.uz/jismoniy-shaxslar-valyutalar-kursi>

² <https://lex.uz/docs/-7170464>



mehnat shartnomalarini rasmiylashtirish, va boshqa migratsion jarayonlarni onlayn tarzda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu tizim, shuningdek, migratsion qonunbuzarliklarni kamaytirishga yordam beradi.³

O'zbekiston hukumatining tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi islohotlari nafaqat migrantlarga huquqiy himoya va ijtimoiy yordam taqdim etishga, balki migratsiya jarayonlarini shaffof va samarali boshqarishga ham qaratilgan. Bu islohotlar mamlakatning xalqaro reytinglariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda va O'zbekistonning migratsiya siyosatini yanada takomillashtirishga yordam bermoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi tizimida ham bir qator muammolar mavjud. Jumladan, norasmiy ishga joylashish va noqonuniy migratsiya hisoblanadi. Fuqarolarning xorijga ishga chiqishida rasmiy agentliklar o'rniga vositachilar xizmatidan foydalanishi ularni noqonuniy holatga tushirib qo'yimoqda. Rasmiy bandlik agentliklari imkoniyatlari cheklangan bo'lib, ko'pchilik fuqarolar kontraktlarsiz, ish ruxsatisiz ishlashga majbur bo'lmoqda. Bu holat ularning huquqiy himoyasiz qolishiga olib keladi.

Huquqiy savodxonlikning pastligi ya'ni chet elga chiqayotgan fuqarolarning katta qismi mehnat shartnomasi, migratsiya qonunlari, o'z huquqlari va majburiyatlaridan bexabar. Bu esa ularni aldanish, ish haqi to'lanmasligi, ekspluatatsiya kabi holatlarga olib kelmoqda. 2023-yil aprel oyida Rossiyaga mehnat qilish uchun norasmiy yo'l bilan chiqqan Jizzax viloyatidan bo'lgan 20 nafar migrant fuqarolarni aldash yo'li bilan ishga olib borilgan. Ishga joylashish va'da qilinganiga qaramay, ular 3 oy davomida ish haqi olmagan, sharoit og'ir bo'lgan. Masala O'zbekiston elchixonasiga aralashgandan so'ng hal etilgan.⁴

Migrantlarning huquqiy maqomini aniqlashdagi murakkabliklar ham mavjud. Ko'plab xorijiy davlatlarda O'zbekiston fuqarolari uchun mehnat vizasi olish, ish ruxsatnomasini rasmiylashtirish murakkab va qimmatga tushadi. Ayrim mamlakatlarda qonuniy ishlash uchun zarur tartib-qoidalar tez-tez o'zgaradi. Huquqiy yordam va konsullik qo'llab-quvvatlash tizimining yetarli emasligi. Chet elda huquqiy muammolarga duch kelgan fuqarolarning o'z elchixonasi yoki konsulligidan tezkor yordam olish imkoniyatlari cheklangan. Ayni paytda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining xorijdagi vakolatxonalari soni yetarli emas. Qozog'istonda ishlayotgan o'zbekistonlik migrantlar 2023-yilda huquqiy nizoga uchragan. Ular Qozog'iston qonunlarini bilmaganligi bois nohaq ayblangan. Konsullik vakolatxonasi uzoqligi sababli ular bir necha hafta yordam kutgan. Bu holat migrantlar uchun elchixonalarning faoliyatini kengaytirish zaruratini ko'rsatdi.

³ <https://migration.uz/>

⁴ <https://migration.uz/>



Ko'plab migrantlar xorijga chiqishdan oldin kasbiy ko'nikma yoki chet tili bilimiga ega emas, bu esa ularning pastroq lavozimlarga joylashishiga, ekspluatatsiyaga uchrashiga sabab bo'ladi. Mehnat sharoitlarining og'irligi va xavfsizlikning ta'minlanmasligi natijada, norasmiy ishlayotgan migrantlar ko'pincha xavfli, sog'lik uchun zararli mehnat sharoitlarida ishlaydi.

Ijtimoiy sug'urta, mehnat muhofazasi, ish joyidagi xavfsizlik ko'p hollarda e'tiborsiz qolmoqda. Ayollar va voyaga yetmaganlarning ekspluatatsiya xavfi ortmoqda va ularni firibgarlar, odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar aldashi ehtimoli yuqori. Voyaga yetmaganlar esa ba'zida hujjatsiz ishlashga jalb qilinadi. 2022-yilda BAAGA ishga ketgan namanganlik ayolga uy xizmatkori lavozimi va'da qilingan, ammo u borib jinsiy ekspluatatsiya qurboniga aylangan. Ayol o'z vaqtida O'zbekiston elchixonasiga murojaat qilgani tufayli vatanga qaytarilgan. Ushbu holat ayollar uchun xavfsiz yo'nalishlar va huquqiy tayyorgarlik zarurligini ko'rsatdi.

Migrantlarning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga ham duch kelmoqda. Bular, ish shartnomasining yo'qligi yoki soxta shartnomalar ish haqining o'z vaqtida to'lanmasligi yashash va tibbiy xizmatlarning yetarli emasligi, oila a'zolari bilan uzoq muddat ajralish natijasida ijtimoiy muammolar, farzandlarining ta'lim va tarbiyasida uzilishlar va shu kabi boshqa muammolar. O'zbekistonda, ayniqsa, qishloq hududlarida va yoshlar o'rtasida ish o'rinlari cheklangan. 2022-yilda 60 mingga yaqin o'zbekistonlik boshqa davlatlarga ishlash uchun ketgan. Bu haqda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi kanaliga joylangan lavhada ma'lum [qilindi](#).

Tashqi mehnat migratsiyasi tizimi jarayonida barqarorlikni ta'minlash uchun sanoat va ishlab chiqarishni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot va masofaviy ish o'rinlarini yaratish lozim. Ish o'rinlarini yaratish uchun sanoat, xizmat ko'rastish, tadbirkorlik, raqamli iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi kabi turli sohalarni rivojlantirish zarur. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi bizneslarni qo'llab-quvvatlash va mehnat bozoriga mos kasb-hunar ta'limini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks yondashuv nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki aholi bandligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tashqi mehnat migratsiyasi O'zbekiston uchun iqtisodiy barqarorlik va aholi bandligini ta'minlashda muhim strategik yo'nalish bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda bu borada sezilarli islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, tizimda hal etilishi lozim bo'lgan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar mavjud. Xususan, tashqi mehnat migratsiyasi tizimi jarayonida barqarorlikni ta'minlash uchun sanoat va ishlab chiqarishni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot va masofaviy ish o'rinlarini yaratish lozim. Ish



o'rinlarini yaratish uchun sanoat, xizmat ko'rastish, tadbirkorlik, raqamli iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi kabi turli sohalarni rivojlantirish zarur. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi bizneslarni qo'llab- quvvatlash va mehnat bozoriga mos kasb- hunar ta'limini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks yondashuv nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki aholi bandligini oshirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lex.uz
2. Kun.uz
3. UZDAILY.UZ
4. DARYO.UZ
5. Gazeta .uz